

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XOJIYEVA MAXFIRAT YUSUPOVNA

O‘ZBEK TILI SO‘Z BIRIKMALARIDA SHAXS TAVSIFI
(substansial va sotsiopragmatik aspektlarda)

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Xojiyeva Maxfirat Yusupovna

О‘zbek tili so‘z birikmalarida shaxs tavsifi (substansial va
sotsiopragmatik aspektlarda)..... 5

Хожиева Махфират Юсуповна

Описание личности в словосочетаниях узбекского языка (в
субстанциональном и социопрагматическом аспектах)..... 25

Khojiyeva Maxfirat Yusupovna

Description of person in word combinations of Uzbek language
(from the point of substantial and sociopragmatic aspects)..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 57

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XOJIYEVA MAXFIRAT YUSUPOVNA

O‘ZBEK TILI SO‘Z BIRIKMALARIDA SHAXS TAVSIFI
(substansial va sotsiopragmatik aspektlarda)

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.1.PhD/Fil1094 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasining (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalining (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nazarova Saida Axmedjanovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Bahriddinova Bashorat Madiyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Raupova Laylo Raximovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi ilmiy tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «25» mart soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1353 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «11» mart da tarqatildi.
(2023-yil «11» mart dagi WG -raqamli reyestr bayonnomasi)


G.N. Murodov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
N.I. Gaybullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
M.K. Abuzalova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tilning antropotsentrik paradigmadagi tadqiqida inson bosh omildir. Inson til egasi, til tashuvchi, tildagi shaxs, soʻzlovchi, tinglovchi, adresant, adresat mavqelarida fanning antropologik yoʻsinda rivojlangan sotsiolingvistika, pragmlingvistika, psixolingvistika, kognitiv lingvistika, etnolingvistika, lingvopersonologiya, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, ekolingvistika kabi tarmoqlarda ustuvorlashgan. Inson sotsiallasuvi mahsuli sifatida shaxs tilda “lisoniy shaxs” kategoriyasining ilmiy tadqiqini kuchaytirdi. Zotan, tildagi shaxsning sotsiolingvistik, pragmlingvistik, lingvomadaniy, lingvopersonologik tadqiqida tildagi shaxsning yangi qirralari ochilmoqda. Shaxs kategoriyasining lisoniy, nutqiy, kommunikativ, pragmatik, sotsial, madaniy, uslubiy qirralari lingvistik konsepsiyalar birlashuvidagi tadqiqida yorqin va yaxlit ifodalanadi. Shaxs kategoriyasi leksik, morfologik, sintaktik sath birliklarida aks etadi. Shaxsning soʻz birikmalaridagi ifodasida lisoniy, sintaktik, nominativ, onomastik, sotsial, pragmatik aspektlar birlashuvi substansial, sotsiolingvistik va pragmlingvistik nazariyalar kesishuvida tadqiq etishni taqozo etadi.

Dunyo tilshunosligida “shaxs” lingvistik kategoriyasining antropotsentrik, lisoniy tizimdagi inʼikosi sistemaviy, struktural, semantik, diskursiv, derivatsion tadqiqi natijasida tahlil usullari va metodikasi, nazariy asoslari shakllangan. Til fanining nazariy bosqichdan amaliy bosqichga oʻtishi global taraqqiyot va umuminsoniy ehtiyojlar belgilagan ijtimoiy zaruriyatdir. Tilning muloqot, nutqiy vaziyatlar, nutqiy harakatlarda faollashuvini sotsial kontekstda baholash shaxs omili yetakchi boʻlgan sotsiolingvistik va pragmlingvistik tadqiqotlarni kuchaytirdi. Binobarin, shaxs tavsifining soʻz birikmalarida ifodalanishi substansial, sotsiolingvistik, pragmlingvistik ilmiy asoslar va usullarning integratsiyasida tadqiq etishni taqozo etadi.

Mamlakatimizning tashqi va ichki, til siyosatida, milliy madaniyat, taʼlim-tarbiya, huquq, iqtisodiyot, tibbiyot sohalaridagi tub islohotlar markazida inson va uning manfaatlarini turadi. Zero “Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat”¹ degan gʻoyaning tatbiqi buni isbotlaydi. Ayni paytda, milliy tilshunoslikda ham inson tadqiqotlar yoʻnalishi, til birliklarining lisoniy va nutqiy imkoniyatlarini oʻrganishda ilmiy tadqiqot usullari, tamoyillarini belgilagan markaziy tushunchadir. Soʻnggi yillarda oʻzbek tilining lingvopragmatik, sotsiolingvistik, etnosotsiopragmatik, pragmatistik, lingvomadaniy, genderolingvistik tadqiqi shaxs lingvistik talqinida yetakchilik qilmoqda. Oʻzbek tili substansial tadqiqida til birliklarining lisoniy mohiyati, imkoniyatlari aniqlangan boʻlsa-da, nutqiy voqelanishini pragmatik va sotsial omillarsiz oʻrganib boʻlmaydi. Shu bois oʻzbek tilida soʻz birikmasining shaxsni tavsiflash imkoniyatlarini substansial, sotsial, pragmatik aspektlarda tadqiq etish zarurati tugʻiladi. Shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarining lisoniy sintaktik, sotsiopragmatik qiymatini ochib berish oʻzbek tili tadqiqini substansial, sotsiolingvistik, lingvopragmatik aspektlar birlashgan yangi bosqichda rivojlantirish nuqtayi nazaridan dolzarbdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi «Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/5774> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 2022 йил 20 декабрь.

to'g'risida»gi PF–5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF–6084-son, 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-son Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2789-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi «Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 984-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsion ish muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida V.V.Burlakova, L.S.Barxudarov, A.A.Djioyeva, V.G.Gak, S.G.Ter-Minasova, E.V.Yuryeva, I.A.Chitao, S.E.Ragimxanova, N.V.Yashchenko, G.I.Babayeva, K.Y.Sigal, M.V.Vlavatskaya, F.U.Xaydarova, M.T.Ramazanov, G.X.Zinnatulina, I.B.Kliyenkova, S.B.Kakvayeva, T.A.Belousova, N.V.Fisunovalarning tadqiqotlari²da roman-german, slavyan, tatar,

² Бурлакова В.В. Основы структуры словосочетания в современном английском языке. – Ленинград: изд-во ЛГУ, 1975.; Бархударов Л.С. Грамматика английского языка / Л.С.Бархударов, Д.А.Штелинг. – Либроком, 2009. –160 с.; Джioева А.А. Английская номинативность и картина мира. – Москва: ИНФРА-М, 2017. –173 с. https://istina.msu.ru/download/70772608/1dkinJ:ZWMcHxiT6RKCR_8sIxIw949hHSUE/; Гак В.Г. К вопросу о семантической типологии словосочетаний // Сб. науч. тр. МГПИИЯ им. М.Тореза. – Москва, 1979. Вып. 145. – С. 44-52.; Тер-Минасова С.Г., Аветисян Н.Г. О соотношении номинативных и предикативных единиц в современном английском языке. (–С.184-193.) http://www.yasu.am/files/17S_Minasova_N_Avetisyan_r.pdf; Юрьева Е.В. Английские субстантивно-субстантивные словосочетания в стиливой дифференциации языка: Диссертация ... кандидата филол. наук. – Москва, 2009. –156 с. <http://www.dslib.net/germanskie-jazyki/anglijskie-substantivno-substantivnye-slovosochetaniya-v-stilevoj-differenciicii.html>; Читао И.А. Структурные и семантические особенности словосочетаний в английском, русском и адыгейском языках. <http://vestnik.advgnet.ru/files/2012.4/2264/chitao20124.pdf>; Рагимханова С.Э. Синтаксические модели субстантивных словосочетаний в азербайджанском языке//Вестник Адыгейского государственного университета. Сер. Филология и искусствоведение. –Майкоп, 2009. Вып.3.– С. 204-209.; Ященко Н.В. Свободное словосочетание как способ номинации лиц женского пола в современном немецком языке/Балтийский гуманитарный журнал. 2018.–№2(23).Т.7.–С.107-111. <https://cyberleninka.ru/journal/n/baltiyskiy-gumanitarnyy-zhurnal>; Бабаева Г.И. Простые и сложные субстантивные словосочетания в азербайджанском и русском языках: Автореф.диссер. ... кандидата филол. наук. – Махачкала, 2016.–25 с.; Сигал К.Я. Теория словосочетания и речевая деятельность. –Ярославль: Канцлер, 2020. – 418 с. https://iling-ran.ru/seagal/teoria_slovosochetania.pdf; Влавацкая М.В. Изучение сочетаемости слов в русской лингвистической традиции (XVII-XIX вв.) //Альманах современной науки и образования. –Тамбов: Грамота, 2008. №8(15): в 2-х ч. Ч. I. ISSN 1993-5552. – С. 40-49. www.gramota.net/materials/1/2008/8-1/14.html; Хайдарова Ф.У. Структурно-семантические особенности свободных словосочетаний в таджикском и английском языках: Автореф.диссер. ... кандидата филол. наук. – Душанбе, 2018.–27 с. <https://www.disserscat.com/content/strukturno-semanticheskie-osobennosti-svobodnykh-slovosochetaniy-v-tadzhikskom-i-angliiskom/read>; Рамазанов М.Т. Именное словосочетание в азербайджанском языке в сравнительно-сопоставительном освещении. (С.210-212.) https://lib.herzen.spb.ru/media/magazines/contents/1/93/ramazanov_93210212.pdf; Зиннатуллина Г.Х. Типы и функции апеллятивных идентификаторов (на примере художественных текстов татарской литературы)//Сибирский филологический журнал. 2013. –С.227-231. <https://cyberleninka.ru/article/n/typy-i-funktsii-apellyativnyh-identifikatorov-na-primere-hudozhestvennyh-tekstov-tatarskoy-literatury/pdf>; Зиннатуллина Г.Х. Стилистические особенности литературных антропонимов //Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. 2010. –№ 3(1). –С.410-416.

ozarbayjon, tojik, chuvash, adigey, lak tillarida soʻz birikmasining struktur, semantik, tipologik, nominativ, uslubiy differensial xususiyatlari oʻrganilib, leksik-morfologik jihatdan atributiv, ismli, substantiv, genitiv, tuzilishiga koʻra, sodda va murakkab turlari tasniflangan. Jahon tilshunosligida soʻz birikmasining formal-tavsifiy, struktur, struktur-semantik, qiyosiy-tipologik, kognitiv tadqiqi soʻz birikmasi sintaksisi nazariy asoslarini shakllantirgan. Mazkur tadqiqotlarda shaxs tavsifi ismli, substantiv, atributiv birikmalarda aks etishi qayd etilgan, ammo shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalari alohida tadqiq qilinmagan.

Oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmasining substansial tadqiqida shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmasi termini S.A.Nazarovanning tadqiqoti³da qoʻllanib, soʻz birikmasi maʼnoviy tiplariga oidligi, lisoniy qurilishi xususida ayrim fikrlar bildirilgan. Qayd etish lozimki, oʻzbek tilshunosligida shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalari tadqiqot obyekti sifatida maxsus oʻrganilmagan. Shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarining substansial, sotsiopragmatik tahlili ushbu tadqiqot uchun asos boʻldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Oʻzbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oʻzbek tilida shaxs tavsifining soʻz birikmalarida ifodalanishini substansial va sotsiopragmatik nuqtayi nazardan asoslashdir.

Tadqiqotning vazifalari:

shaxs ijtimoiy va lingvistik kategoriya ekanligini, tildagi shaxs va uning maqomi masalasini yoritish;

oʻzbek tilida shaxs tavsifi soʻz birikmalarida ifodalanishi va shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalari alohida tur sifatida ajratilishini asoslash;

shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarining qurilishi va qoliplarini substansial nazariya asosida aniqlash;

shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarini sotsial va pragmatik aspektlarda tahlil qilish;

shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarida sotsial va pragmatik xususiyatlar uygʻunlashuvini dalillash.

Tadqiqotning obyekti sifatida oʻzbek tilida shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarining struktural,

<https://cyberleninka.ru/article/n/stilisticheskie-osobennosti-literaturnyh-antroponimov/pdf> ; Клиенкова И.Б. Лексико-грамматические свойства субстантивных словосочетаний в швейцарском варианте немецкого литературного языка (по материалам прессы): Автореф.диссер. ... кандидата филол. наук. –Москва, 2015.–25 с. <https://www.dissercat.com/content/leksiko-grammaticheskie-svoistva-substantivnykh-slovosochetanii-v-shveysarskom-variante-nem/read> ; Какваева С.Б. Субстантивные словосочетания с приименным генитивом в лакском и русском языках//Известие ДГПУ. 2009. –№2. <https://cyberleninka.ru/journal/n/izvestiya-dagestanskogo-gosudarstvennogo-pedagogicheskogo-universiteta-obschestvennye-i-gumanitarnye-nauki>; Белоусова Т.А., Фисунова Н.В. Субстантивные генитивные словосочетания в современном немецком языке/ Научные ведомости БелГУ. 2015. –№6(203). Выпуск 25.–С.60-65. <https://cyberleninka.ru/journal/n/voprosy-zhurnalistiki-pedagogiki-yazykoznaniya>

³ Назарова С.А. Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талқинда. –Тошкент: Фан, 2015. – 112 б.

substansial, sotsiopragmatik, uslubiy, kontekstual xususiyatlaridir.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsifiy, qiyosiy, struktural, substansial, sotsiolingvistik, lingvopragmatik, kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tilida shaxs tavsifining so'z birikmalarida ifodalanishi substansial, sotsiolingvistik va pragmatik nazariy asoslar va tahlil usullari mushtarakligida aniqlangan;

o'zbek tili so'z birikmasi tizimida shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari mazkur birliklarning alohida – ma'naviy turi sifatida ajratilishi sistemaviy, struktur, substansial nuqtayi nazardan asoslangan;

shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari lisoniy qurilishi substansial tahlil qilinib, til sathida oldindan tayyor $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$, $[O_a \sim O_{sh}] = SB$, $[O_{sh} \sim O_a] = SB$ sintaktik qoliplari asosida voqelanishi, tilning nominativ vazifasini lisoniy sintaktik imkoniyatlar asosida muloqot/diskursda namoyon etuvchi verbal vosita sanalishi isbotlangan;

muloqotdagi $[O_{sh} \sim O_{sh}]$, $[O_a \sim O_{sh}]$, $[O_{sh} \sim O_a]$ qurilmali variantlarning shaxsni ijtimoiy maqom, qatlam, sotsial rollarga xos ma'lumot darajasi, mansab, lavozim, nasl-nasab, kasb, hunar, mashg'ulot, qarindoshlik, milliy mansublik, yosh, gender kabi sotsial belgilar asosida aniqlashtirish, nomlash, muloqot xulqini illokutiv, perllokutiv aktlarda verballashtirish xususiyatlarida sotsial va pragmatik aspektlar uyg'unlashuvi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

shaxs ijtimoiy umumilmiy kategoriya sanalishi, tilda shaxs kategoriyasi antropologik paradigmada "lisoniy shaxs" maqomiga egaligi, "shaxs" tushunchasi tilning leksik, morfologik sathlarida "shaxs" semali birliklarda, shuningdek, sintaktik sathda so'z birikmalarida aks etishi aniqlangan;

shaxs tavsifining so'z birikmalarida ifodalanishi monografik nazariy aspektda tahlil qilingan;

shaxsni tavsiflovchi so'z birikmasining alohida ajratilishi so'z birikmasi tasnifida ma'naviy turlarni farqlash uchun zarurligi, shaxsning so'z birikmasidagi ifodasi muloqotda "shaxs" tushunchasini aniq, pragmatik vaziyatga mos ko'rinishda istifodasi uchun qulayligi asoslangan;

muloqot va diskursda shaxs tavsifini shakllantiruvchi $[O_{sh} \sim O_{sh}]$, $[O_a \sim O_{sh}]$, $[O_{sh} \sim O_a]$ qurilmali birikmalarning faolligi sotsial va pragmatik omillar orqali belgilangan;

$[O_a \sim O_{sh}]$, $[O_{sh} \sim O_a]$ qurilmali antroponimli turi nutq subyektlari ijtimoiy qatlami, guruhi, individualligini ko'rsatish, ijtimoiy tipini sotsial belgilar asosida farqlashda faol qo'llanishi kuzatilgan va $[O_i \sim O_h]$, $[O_i \sim O_{mash}]$, $[O_{k-h} \sim O_i]$, $[O_{n/m} \sim O_i]$, $[O_i \sim O_q]$, $[O_i \sim O_m]$, $[O_i \sim O_{yo/h}]$, $[O_i \sim O_l]$, $[O_f \sim O_y]$, $[O_k \sim O_f]$ oraliq shaklli birikmalarda sotsiopragmatik omillarni yorqin ifodalashi o'z tasdig'ini topgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi keltirilgan ilmiy ma'lumotlarning ishonchli, nazariy manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalarining turli tahlil usullari yordamida aniqlanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shaxsni tavsiflovchi so'z birikmasi ilk bor so'z birikmasi ma'naviy turi

sifatida ajratilgani, lisoniy qurilishi va sintaktik qoliplari aniqlangani, shaxs xarakterini muloqot va diskursda tilning sotsial va pragmatik aspektlari asosida yorqin ifodalash imkoniyati hamda substansial, sotsiopragmatik xususiyatlari aniqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalaridan substansial sintaksis, sotsiolingvistika, lingvopragmatika, uslubshunoslik, matn lingvistikasi bo'yicha darslik va qo'llanmalar yaratishda, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tilidagi shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining substansial va sotsiopragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

o'zbek tilida shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining lisoniy qurilishi, ma'no turlari xilma-xilligi, bu birliklarning tibbiy atamalarni shakllantirish imkoniyatlari va shu vazifaga xoslanishi bilan bog'liq ayrim nazariy xulosalar, sotsiopragmatik va lingvopragmatik jihatlariga doir ma'lumotlardan Buxoro davlat universitetida A-OT-2021-2 raqamli "Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2022-yil 25-noyabrdagi 04-04/01-2334-son ma'lumotnomasi). Natijada shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining lisoniy qurilish xususiyatlari, sotsiopragmatik jihatlarini dalillangan ilmiy-nazariy qarashlar "Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasi"ning yaratilishida lingvistik ta'minot vazifasini bajargan;

shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining sotsial, pragmatik xususiyatlaridan, muloqotdagi $[O_{sh} \sim O_{sh}]$, $[O_a \sim O_{sh}]$, $[O_{sh} \sim O_a]$ qurilmali variantlarning shaxsni ijtimoiy maqom, qatlam, sotsial rollarga xos ma'lumot darajasi, mansab, lavozim, nasl-nasab, kasb, hunar, mashg'ulot, qarindoshlik, milliy mansublik, yosh, gender kabi sotsial belgilarining ijtimoiylashish jarayonida adresatga ta'sir o'tkazish, uning psixologik holatini tahlil qilish kabi ma'lumotlardan Buxoro davlat universitetida Yo-A-1-9 raqamli "Aholining turli qatlamlariga psixologik yordam ko'rsatish" mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda (2020-2021-yy.) foydalanilgan. (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 13-fevraldagi 04-01/278-son ma'lumotnomasi). Natijada shaxsni muloqotda aniqlashtirish, nomlash muloqot xulqini illokutiv, perlokutiv aktlarda verballashtirish xususiyatlariga oid lingvistik materiallar orqali asoslangan;

mazkur so'z birikmalarining sotsiopragmatik va pragmalolingvistik xususiyatlariga doir xulosalardan ommaviy axborot vositalarida – O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyatining "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" dasturlarida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi-ning 2022-yil 13-maydagi O'Z-RK-17-108-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuvlar mazmunan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 34 ta ilmiy ish chop ettirilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda

5 ta maqola, ulardan 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda (Scopus bazasidagi jurnallarda 2 ta maqola (hammualliflikda) e'lon qilingan. Tadqiqot mavzusi va muammosiga doir 3 ta monografiya va 2 ta usuliy qo'llanma (hammualliflikda) nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, shartli belgilar va atamalar ro'yxatlaridan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 149 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Shaxs – ijtimoiy va lingvistik kategoriya sifatida”** deb nomlanadi. Bobning birinchi (“Shaxs tushunchasi: ilmiy mushohadasi va lingvistik talqini”) bo'limida “shaxs” tushunchasining ijtimoiy mohiyati falsafiy, fenomenal, umumilmiy kategoriya sifatida mushohada etilishi asosida yoritildi. Til, inson va jamiyat o'zaro chambarchas bog'liq: bir-birini taqozo qilish – ularning mavjudlik sharti. Til inson va jamiyatdan ayri rivojlanmaydi, tilni insondan ajratib, alohida o'rganib bo'lmaydi. Sababi, til mavjudligi va taraqqiyotining bosh omili – inson: u tildan foydalanuvchi; tilning milliy til, davlat tili mavqeyida rivojlanishi, til jamiyatining milliy yuksalishi, tilning umumbashariy tamaddun boyliklarini tashuvchi qudratini namoyon qiluvchi; so'zlovchi; tinglovchi; axborotni qabul qiluvchi va yetkazuvchi; umuman, til egasidir. Til uni “shaxs”, “subyekt”, “individ” terminlari bilan alohida ifodalash imkonini beradi.

Shaxsni “inson tushunchasining yuksak ko'rinishi, oliy maqomi⁴”, deb ta'riflash mumkin, ammo uning mazmun-mohiyatini qisqa ta'rif bilan chegaralab bo'lmaydi. O'zbek tilida shaxs “[a.kimsa, kishi, zot]: 1. Jamiyatdagi alohida kishi, odam. Notanish shaxs. Tarixiy shaxs. Shaxsga sig'inish. 2. ayn. Shaxsiyat. 3. tish. Fe'l va ot turkumiga oid so'zning uch shaxsdan birini ko'rsatuvchi shakli va shu shaklga xos ma'no”⁵ni anglatishi tushuncha mazmun-mohiyatini to'la qamrab olmaydi. Negaki, “shaxs” insondagi biologik, ruhiy, kognitiv, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, axloqiy, etnik (v.b.) jihatlarni qamrab oladigan murakkab va serqatlam tushunchadir. Shaxs tadqiq obyektiga aylangan har bir fan sohasida ilmiy termin sanaladi.

Shaxsning falsafiy mohiyati falsafadagi bosh masala – shaxs va jamiyat munosabatlari markazida turishi bilan belgilanadi. Falsafiy nuqtayi nazardan: “shaxs 1) ongli faoliyat va munosabatlar subyekti sifatida odam individi yoxud 2) individni u yoki bu jamiyat (umumiylik) a'zosi sifatida xarakterlaydigan sotsial mazmunga

⁴ Фалсафа:энциклопедик луғат. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010. – 344 б. –Б. 299. [https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Falsafa.%20Ensiklopedik%20lug'at%20\(M.Abdullayeva%20va%20b.\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Falsafa.%20Ensiklopedik%20lug'at%20(M.Abdullayeva%20va%20b.).pdf)

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 608 б. –Б. 557.

ega xususiyatlarning turg'un tizimini anglatadi. Garchi bu ikki tushuncha – odam butunligi sifatida shaxs (lot. *persona*) hamda sotsial va psixologik qiyofa sifatida shaxsiyat (lot. *personalitas*) – terminologik jihatdan to'la farqlansa ham, ba'zan sinonim kabi qo'llaniladi⁶. Falsafiy ta'limotlar markazini ham shaxs (inson) muammosi egallaydi. Protogorning antik davr falsafasidayoq e'tirof etilgan "inson barcha narsalarning o'lchovidir"⁷ degan fikri XXI asrda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Zero, inson olam va borliq, jamiyat va tabiat, ong va ruh munosabatlari markazida turadi va qurshovini belgilaydi.

Shaxsning ijtimoiy talqinida o'zak nuqta: "inson faqat hayot faoliyati, sotsiallasuv jarayonida shaxs bo'lib yetishishi"dir. Demak, shaxs – insonning sotsiallasuv mahsuli. Falsafiy konsepsiyalardagi qarashlar "inson shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki shaxs bo'lib yetishadi" degan umumlashmada kesishadi. Bunda insonning sotsiumda o'z individualligini namoyon qilib, tarixiy tajriba orttirish natijasida dunyoga o'z qarashi, nuqtayi nazarini shakllantirib, shaxs bo'lib yetishishiga asoslaniladi⁸.

Shaxs –fenomen, u inson olamining butun murakkabliklarini o'zida mujassam etadi⁹. Uning ko'pqirraliligi ijtimoiy va tabiiy fanlarda birday o'rganiladigan shaxs muammosining fanlararo maqomini belgilash uchun asos bo'lgan. Shu bois "individ", "shaxs", "individuallik" insonning biogenetik, sotsiologik, personologik yondashuvlardagi tadqiqida har xil mezonlar sifatida qat'iy farqlanadi. "Individ" (antropogenez mahsuli), "shaxs" (ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirgan individ), "individuallik" (dunyoni o'zgartiruvchi individ) tushunchalari orasidagi aloqadorlikni quyidagi formulada aks ettirish mumkin: "Individ bo'lib dunyoga kelinadi. Shaxs bo'lib yetishiladi. Individuallik himoya qilinadi"¹⁰.

Shaxs umumilmiy kategoriya sifatida biologik, fiziologik, genderologik, psixologik, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, etnik, ma'naviy, axloqiy (v.b) aspektlarda talqin qilinadi. Aynan ijtimoiylik "shaxs – ongli individ" deb umumlashtirish uchun ilmiy mezon bo'ladi.

Tilshunoslikda "shaxs" asosiy ilmiy tushuncha sifatida tilning barcha vazifalarini amalga oshirish va mavjud imkoniyatlarini nutqda ro'yobga chiqarishda faol qatnashadi. Lingvistik terminlik maqomi, qamrovi, ixtisoslashuvini terminologik mazmuni va izohlari yanada aniq ko'rsatadi. Shaxs yakka va birikmali shaklda to'rt xil terminologik ma'nosi asosida qo'llanadi: Shaxs. Grammatikadagi uch shaxs: so'zlovchi, tinglovchi, o'zga. Shaxs nomlari. Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusini bildiruvchi otlar: *Usmon Nosir, Erkin Vohidov*. Shaxs otlari. Shaxslarning yoshiga, yashash joyiga, mansab-unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasiga, nasl-nasabiga ko'ra nomlanishi: *andijonlik, hokim, quruvchi, dehqon, xola*. Shaxs otli birikmalar. Shaxs oti va kishi

⁶ ЛИЧНОСТЬ <https://dic.academic.ru/dic.nsf/encphilosophy/2639/%D0%9B%D0%98%D0%A7%D0%9D%D0%9E%D0%A1%D0%A2%D0%AC>

⁷ Фалсафа. Ўқув қўлланма (Э.Ю.Юсуповнинг умумий таҳрири остида).–Тошкент:Шарқ, 1999.–496 б. –Б.273.

⁸ <https://dic.academic.ru/dic.nsf/encphilosophy/2639/%D0%9B%D0%98%D0%A7%D0%9D%D0%9E%D0%A1%D0%A2%D0%AC>

⁹ Фалсафа: энциклопедик луғат. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010. – 344 б. – Б.299.

[https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Falsafa.%20Ensiklopedik%20lug%at%20\(M.Abdullayeva%20va%20b.\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Falsafa.%20Ensiklopedik%20lug%at%20(M.Abdullayeva%20va%20b.).pdf)

¹⁰ А.Г.Асмолов, Д.А.Леонтьев. Новая философская энциклопедия: В 4 тт. – Москва: Мысль. Под ред. В.С.Стёпина.2001. https://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy/2639/%D0%9B%D0%98%D0%A7%D0%9D%D0%9E%D0%A1%D0%A2%D0%AC

nomlarining o‘zaro birikishi: *zargar Rahimjon, Sirojiddin sartarosh, Abdurahim oqsoqol, Salim pichoqchi*”¹¹.

Lingvistika “shaxs” tushunchasi ilmiy paradigmalardan o‘rin olishiga, shaxs (inson) ilmiy tadqiq usuli, mezoni, ilmiy yondashuvlar vektorini belgilovchi lingvistik kategoriyaga aylanishiga zamin yaratdi. Uning lingvistik in’ikos kategoriyasida yetakchiligi “inson – so‘zlovchi shaxs sifatida ham, o‘zi so‘z yuritayotgan olamning bosh ijrochisi (foili) sifatida ham tilning markaziy figurasi” (G.A.Zolotova ta’rifi) ekanligi bilan izohlanadi. Lisoniy faoliyat negizida inson/shaxs turgan lingvistik konsepsiya ilmiy asoslari E.Benvenist, V.V.Vinogradov, Y.S.Stepanov, G.A.Zolotovaning ishlarida berilgan¹².

Shaxs o‘zi mansub millat tili, shuningdek, ma’lum madaniy mentallik va voqelikni individual idrok etishining usuli o‘z “tili”ning egasidir. U insonning mental, ichki olami, aqliy saviyasi aks etgan “lisoniy shaxs” o‘laroq namoyon bo‘ladi. Tilda inson va olam munosabati, lisoniy shaxs ruhiyati, ichki kechinmalari, maqsad va intilishlari, orzu-istaklarini ifodalash vositalari, ularning vazifasi va o‘rnini aniqlash uchun behad zarur. Zotan, XXI asrda global taraqqiyot shaxs manfaatdorligiga ustuvorlik berganligi jadal rivojlanayotgan antropotsentrik nazariyalar va tilning antropotsentrik paradigmadagi tadqiqidan ayon. D.Niyazovanning haqli e’tirofiga ko‘ra, “Dunyo tilshunosligida nutq tuzuvchi va nutqni idrok etuvchi shaxs tushunchasi talqinida yangi nazariy qarashlarning yuzaga kelishi bu muammoni o‘rganuvchi soha – lingvopersonologiyaning shakllanishiga turtki bergan” va “insonga tildan shunchaki foydalanuvchi shaxs sifatida emas, bu jarayonda til orqali o‘z shaxsiy sifatlarini namoyon etuvchi, unga milliy-madaniy, etnik belgilarni singdiruvchi, tilni saqlovchi va kelajak avlodlarga uzatuvchi lisoniy shaxs sifatida qarash lingvopersonologiyaning alohida paradigma sifatida ajralib chiqishiga zamin yaratgan”¹³.

Hozirgi kunda “lisoniy shaxs” kategorial maqomga ega. Tildagi “shaxs”ni anglatishi pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kommunikativ lingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiyada asosiy termin sifatida qo‘llanilishiga asos bo‘lgan. Lingvistik sohalarda faol qo‘llanayotgan “lisoniy shaxs”, “kommunikativ shaxs”, “so‘zlovchi”, “til shaxsi” singari maxsus leksik birliklar “shaxs” tushunchasini yaxlit ifodalasa ham, terminologik ma’nosi, muayyan semantik xususiyatiga ko‘ra farq qiladi.

Ushbu bobning “Shaxs” ma’nosining leksik ifodasi” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida o‘zbek tilida “shaxs” ma’nosining lug‘aviy birliklarda ifodalanishi masalasi tahlil qilindi: tilning shaxsni atash vazifasining “shaxs” ma’noli leksik birliklarda namoyon bo‘lishi, “shaxs tavsifi” lug‘aviy mavzuviy to‘dasi va uni tashkil qiluvchi shaxs otlari, shaxsni tavsiflash imkoniyatlari xususida fikr yuritildi.

¹¹ Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati: umumta’lim maktablari hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun. – Toshkent: Fan, 2013. – 144 b. – B. 139-140. [https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Tilshunoslik%20terminlarining%20izohli%20lug'ati%20\(N.mahkamov,%20I.Ermatorov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Tilshunoslik%20terminlarining%20izohli%20lug'ati%20(N.mahkamov,%20I.Ermatorov).pdf)

¹² Ахматьянова З.С. Существительные Nomina agentis в современном русском языке: Диссертация ... кандидата филол. наук. – Уфа, 2000. – 221 с. <http://www.dslib.net/russkij-jazyk/suwestvitelnye-nomina-agentis-v-sovremennom-russkom-jazyke.html>

¹³ Ниязова Д.Х. Бадий матнда лисоний шахс типлари: Филология фанлари ... фалсафа доктори (PhD) ... дисс.автореф.– Қарши, 2020. –51 б. –Б.9-10. <http://library.ziyounet.uz/static/lib/reader-pdf/web/viewer.html?file=http://library.ziyounet.uz/uploads/books/251467/5f93d7a51996d.pdf>

Tilda shaxsni nomlash, tavsiflash imkoniyatlari, usullari va vositalari mavjud. “Shaxs” tushunchasini shaxsni atash vazifasiga xoslangan til birliklari sirasida, birinchi navbatda, shaxs nomlari, ilmiy muomalada keng qo‘llanuvchi shaxs otlari, ya’ni “shaxsni atab, uning ma’lum bir belgi-xususiyatlariga ishora etuvchi so‘zlar¹⁴” ifodalaydi. O‘zbek tilida shaxs otlari muayyan ot tarkibiga kiruvchi “shaxs nomi” deb atalmish lug‘aviy mavzuviy to‘da sifatida alohida ajratiladi. “Shaxs nomi” mavzuviy to‘dasi *yigit, chol, o‘zbek, tojik, cho‘loq, kasal, ota, ona* kabi leksemalarni birlashtirishi¹⁵ ma’lum. O‘zbek tilida “shaxs” ma’noli leksik birliklar “shaxs tavsifi” lug‘aviy mavzuviy to‘dasi tarkibiga kiradi. Ushbu to‘daning “shaxsni atovchi” elementi sifatida shaxsni nomlash yoki tavsiflash vazifasini bajaradi. “Shaxs” tushunchasi yaxlit shakl va mazmunga ega bo‘lgan “shaxs” semali leksik birliklar shaxs nomlari/shaxs otlari deyiladi. Shaxsni atovchi leksik birliklar “shaxs nomi” integral semali mavzuviy to‘da tarkibida oldindan tayyor bo‘ladi. Shaxs nomlari alohida lug‘aviy mavzuviy to‘dani tashkil qilishi va 12 xil lug‘aviy mavzuviy guruhni o‘z ichiga olishi B.Mengliyev, M.Abuzalova¹⁶, M.Narziyeva¹⁷ qarashlari asosida belgilandi.

Ko‘p hollarda “harakatni bajaruvchi shaxs” ([fe’l+-(u)vchi=fe’l anglatgan harakatni bajaruvchi] qolipi hosilasi), ya’ni ismi foillar shaxs otlari bilan chalkashtirib yuboriladi¹⁸. Chunki “harakat bajaruvchisi” (ish-harakat bajaruvchisi – egani emas,) “shaxs” ma’nosini o‘z ichiga olgani uchun shaxs otlariga o‘xshaydi. Ularning farqli jihatlari lison-nutq qarama-qarshiligida aniqlanib, “shaxs” ma’nosi va tavsifi leksik, morfologik, so‘z yasalishi sathlarida ifodalanishi ilmiy dalillangan. Bu masalaga e’tibor qaratilishiga sabab bo‘lgan ikki asos: 1) “ismi foillarda nutqiy taraqqiyot natijasida ixtisoslashish yuz berib, ular shaxs otlariga qarab rivojlanishi”¹⁹ va shaxs otlari paradigmasidan o‘rin olishi; 2) “shaxs” konsepti bilan assotsiativ bog‘lanuvchi birliklar ichida shaxs otlari va ismi foillar muhim o‘rin tutishi”²⁰ dir. Shaxs otlari va ismi foillarning aloqadorligi “shaxs” konsepti asosida ilmiy yechimini topadi.

O‘zbek tilshunosligida “shaxs” tushunchasi leksik sathda lug‘aviy birliklar, morfologik sathda ot turkumi doirasida o‘rganilib, sistemaviy, struktural, substansial tadqiq yo‘nalishlarida muayyan natijalarga erishilgan bo‘lishiga qaramay, “shaxs” konsept sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan, lisoniy, konseptual talqini to‘liq shakllanmagan. “Shaxs” tushunchasi kognitiv, umuman, atropolingvistik aspektlarda chuqur va atroflicha tahlil qilinishi zarur.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbek tilida shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalari”** deb nomlanadi. Unda tobe va hokim a’zosi shaxs otlaridan tuzilgan hamda atoqli va shaxs otlardan tuzilgan shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalari, mazkur so‘z birikmalarining lisoniy qurilishi substansial nazariy asoslarda tahlil

¹⁴ Салоев Р. Ўзбек тилида исми фоиллар: Филол. фанлари номзоди... диссер.автореф. – Самарқанд, 1994. – 25 б. –Б.8.

¹⁵ Замонавий ўзбек тили. Морфология. I жилд. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2008. – 468 б. –Б.404.

¹⁶ Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Qarshi : Nasaf, 2005. – 184 b.

¹⁷ Нарзиева М. Семантическая структура имен существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке: Автореф. диссер. ... кандидата филол. наук. – Ташкент, 1992.–28 с.

¹⁸ Saloyev R. Ko‘rsatilgan manba. –B.4.

¹⁹ Saloyev R. Ko‘rsatilgan manba. –B. 6.

²⁰ Yigitaliyev U. O‘zbek tilining morfologik sathida “shaxs” konseptining antropotsentrik (assotsiativ) voqelanishi // “Istiqloq davri o‘zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. –Toshkent, 2021. – 674 b. (125-130-b.) –B.126.

<https://uniwork.buxdu.uz/resurs/2988718C329274B766E942CB94AD100218A405DD5AA4AF.pdf>

qilingan. “Tobe va hokim a’zosi shaxs otlaridan tuzilgan so‘z birikmalari” nomli 1-bo‘limda shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarining tobe va hokim a’zosi shaxs otlaridan iborat turi o‘rganilgan. Shaxsni atash yoki muayyan jihatiga ko‘ra tavsiflash ehtiyoji “shaxs” ma’noli leksik birliklar bilan cheklanmay, tilning boshqa imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Shulardan biri *suvchi yigit, sotuvchi erkak, oshpaz qiz, tilshunos olim, aravasozi usta, qozoq chol, lo‘li qiz, tatar kampir, sirdosh dugona, mahalladosh tikuvchi, hamkasbi usta, qo‘shni maxsido‘z, Razzoq so‘fi, temirchi Jo‘ra, Shokir juvokash, mulla Abdurahmon, Miroqil paxtafurush, usta Olim, Normat qassob, Asror bobo, Nazira aya, Gulsum opa (v.h.)* kabi so‘z birikmalari orqali namoyon bo‘ladi. Tabiiyki, bu o‘zbek tilida shaxs tavsifining so‘z birikmasi bilan ifodalanish imkoniyati mavjudligidan dalolat beradi. Shaxs tavsifining so‘z birikmasidagi ifodasi til egalarining shaxsni u yoki bu jihatdan tavsiflash ehtiyoji yuzaga chiqargan sintaktik imkoniyat – so‘zlarni birlashtirish va shu asosda turli kombinatsiyalar hosil qilishning bir ko‘rinishidir. Til shaxs va uning tavsifini so‘z birikmalarida aks ettirar ekan, muayyan sintaktik imkoniyati “ishga solingani” natijadan – shaxsni tavsiflash vazifasini bajarayotgan birliklardan anglashiladi.

Nutqda shaxsni tavsiflash ehtiyoji tufayli yuzaga keladigan so‘z birikmalari shaxs otlarining o‘zaro yoki atoqli otlar (kishi ismi, familiyasi) bilan birlashtirish va ularning muayyan sintaktik vaziyatni egallashidan hosil bo‘ladi. Bu birliklar sirasida *suvchi yigit, sotuvchi erkak, oshpaz qiz, tilshunos olim, aravasozi usta, qozoq chol, lo‘li qiz, mahalladosh tikuvchi, hamkasbi usta* kabi so‘z birikmalarini tobe va hokim bo‘laklar lug‘aviy asoslarining shaxs nomlaridan tashkil topganligi ajratib turadi. Lekin kishi nomlari (ism, familiya, ota ismi, laqab)ning *Razzoq so‘fi, Shokir juvokash, Miroqil paxtafurush, Normat qassob, Nazira aya* singari so‘z birikmalarida hokim vaziyatda, *temirchi Jo‘ra, mulla Abdurahmon, usta Olim* kabi birikmalarda esa tobe vaziyatda reallashuvi bunday birikmalar alohida tur ekanligini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, ular tobe va hokim a‘zolari shaxs otlaridan tashkil topgan so‘z birikmalaridan tafovutlanadi.

Ushbu bobning ikkinchi (“Atoqli va shaxs otlaridan tuzilgan shaxsni tavsiflovchi birikmalar”) bo‘limida atoqli otlarning shaxs otlari bilan birlashtirish yuzaga keladigan so‘z birikmalari xususida fikr yuritib, ular shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarining alohida turi ekanligini asoslashga harakat qildik. O‘zbek tilida shaxs tavsifini so‘z birikmasi orqali ifodalashning yana bir turi (usuli) borki, shaxs otlarining atoqli otlar bilan sintaktik munosabatidan yuzaga keladi. Shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarining bu turiga quyidagi hosilalar kiradi: *Shokir juvokash, temirchi Jo‘ra, Miroqil paxtafurush, general Rahimov, Fazliddin me‘mor, akademik Abdurahmonov, Jabbor rais, Xolmat buva, Mengnor momo, Hakima aya, Sobir tog‘a, Ra‘no opa, Azamat aka (v.h.)*.

Antroponimlar (aksariyat holda kishi ismi, familiyasini anglatuvchi birliklar) tobe yoki hokim vaziyatda reallashuvini tasdiqlovchi bu so‘z birikmalari alohida guruhni tashkil etadi. Shunga ko‘ra, bu guruhni shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalari sirasida antroponim shakllantiruvchi guruh sifatida ajratish mumkin. Bu guruhga oid so‘z birikmalari ham tilning shaxsni atash va muayyan xususiyatiga ko‘ra tavsiflash vazifasini nutqda ro‘yobga chiqishi bilan amalga oshiradi. Otlarga xos lisoniy imkoniyatlardan biri shaxs otlari va atoqli ot (antroponim)larning sintaktik aloqasi

asosida voqelanar ekan, shaxs otlarining atoqli otlarni biriktirish va ularga birikish qobiliyatlarini namoyon etadi. Boshqacha aytganda, o'zbek tilida shaxsni tavsiflovchi ot leksemalarning atoqli otlar, ya'ni kishi ismi, ota ismi, familiyasini anglatgan leksemalar bilan tobelanishidan hosil bo'ladigan hamda kommunikativ maqsad va nutqiy ehtiyojdan paydo bo'ladigan so'z birikmalari mavjud. Bunday so'z birikmalarining tarkibida kishi ismi, ota ismi, familiyasini atovchi leksemalar goh tobe, goh hokim vaziyatda voqelana oladi.

Antroponim shakllantiruvchi so'z birikmalari nutqiy muloqot yoki nutq sharoitida fikr qaratilgan shaxsning boshqalardan farqlanuvchi xususiyatlarini ta'kidlash, o'ziga xosligini ifodalash, umuman, shaxsni muayyan belgilari asosida atash maqsadida keng iste'molda bo'ladi. Zero, antroponimlar so'z birikmalari shaklida shaxsni aniq ifodalaydi. Aslida, *Shokir* ismli erkak *Shokir juvozkash* yoki *Hakima* ismli ayol *Hakima aya* tarzida qayta nomlangandek tuyuladi. Bizningcha, muayyan ism egasini qanday xususiyatga egaligini ko'rsatish ko'p hollarda, kishi ismi uning shaxsi haqida to'liq tushuncha bera olmaydigan nutqiy vaziyatlarda shaxsni qayta nomlashni taqozo etadi. Mohiyatan qayta nomlashga teng jarayon – nutqda antroponimlar va shaxs otlari birikuvida namoyon bo'ladi. Aniqroq aytsak, *temirchi Jo'ra*, *Miroqil paxtafurush*, *general Rahimov*, *akademik Abdurahmonov*, *Jabbor rais*, *Xolmat buva*, *Mengnor momo*, *Sobir tog'a* tipidagi so'z birikmalarida shaxs haqidagi tushuncha torayib, muayyan ism (familiya) egasi to'g'risidagi axborot aniqlashadi.


Bobning 3-bo'limida shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining lisoniy qurilishi o'rganilgan, bu so'z birikmalarini hosil qiluvchi sintaktik qoliplar aniqlangan. O'zbek tili sintaksisining struktural, substansial tadqiqi ilmiy asoslari va tahlil usullari asosida shaxs otlarining o'zaro va kishi nomlari bilan birikuvlarini umumlashtirgan sintaktik qoliplar keltirib chiqarildi. So'z birikmasi va gaplarni hosil qiluvchi lisoniy sintaktik qolip mohiyatan riyoziy tenglamaga o'xshab ketadi va u ikki qismdan iborat: tenglik belgisidan chap tomon va bu belgidan o'ng tomon²¹. Masalan, *suvchi yigit* ba *qo'shni ayol* birikmalarida tobe-hokimlik munosabatini yuzaga chiqarayotgan shaxsni kasbi, yoshi, yaqinlik munosabati va jinsiga ko'ra tavsiflovchi ot leksemalar 2 xil birikish usuli (tarzi)ni shakllantiradi: 1) *suvchi yigit* – $[O_k \sim O_y]$; 2) *qo'shni ayol* – $[O_{yaq} \sim O_j]$.

$[O_k \sim O_y]$ birikish usuli (1) tobe a'zo mavqeyida shaxsni kasb jihatidan tavsiflovchi ot leksema – $[O_k]$ voqelashuvi va hokim a'zo mavqeyini shaxsni yoshiga ko'ra tavsiflovchi ot leksema – $[O_y]$ egallashini shartli belgilarda, ixcham ifodalaydi. $[O_k]$ va $[O_y]$ qismlari orasidagi sintaktik aloqa $[O_k \sim O_y]$ birikish usulida o'z aksini topadi. $[O_{yaq} \sim O_j]$ birikish usuli (2) tobe a'zo mavqeyidagi yaqinlikni ifodalovchi ot – $[O_{yaq}]$ va hokim a'zo mavqeyidagi jins nomi – $[O_j]$ orasidagi sintaktik aloqani anglatadi. Birikish usullari otlarning tobe-hokimlik munosabati ma'noviy, shakliy, joylashuvga xos birikuvchanlik imkoniyatlaridan faqat ma'noviy va joylashuvga xos birikish omillari asosida yuzaga chiqqanligini yaqqol ifodalaydi.

O'zbek tilida shaxsni tavsiflash imkoniyati shaxs otlarining birikish usuli va mahsulining xilma-xilligini belgilaydi. Bu chizmada $-[O_{sh} \sim O_{sh}]$ birikish usuli va

²¹ Неъматов Х., Сайфуллаева Р., Курбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. – Тошкент: Университет, 1999. – 55 б.

ko‘rinishlari munosabatidan ayon bo‘ladi:



O‘zbek tilida shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarining lisoniy qurilishini mujassamlashtirgan sintaktik qolipning umumiy shakli – $[O_{sh} \sim O_{sh}]$ umumiylik-xususiylik aloqadorligi asosida kelib chiqadi. Sintaktik qolipning umumiy shakli – $[O_{sh} \sim O_{sh}]$ dialektik jihatdan nisbiy muayyan. Shakliy tomonning muayyanligi uning nutqiy voqelanishida yaqqol ko‘rinadi. Zero, shakliy tomonning moddiylashuvi – nutqiy voqelanishi $[O_k \sim O_y]$, $[O_{yaq} \sim O_j]$, $[O_j \sim O_k]$, $[O_k \sim O_j]$, $[O_{yaq} \sim O_k]$, $[O_m \sim O_y]$, $[O_{yaq} \sim O_y]$, $[O_m \sim O_k]$, $[O_k \sim O_k]$, $[O_m \sim O_j]$, $[O_j \sim O_q]$, $[O_j \sim O_{l-m}]$ kabi o‘ndan ortiq oraliq shakllar va shaxsni tavsiflovchi minglab muayyan so‘z birikmalari, ya’ni xususiy shakllar orqali namoyon bo‘ladi. $[O_{sh} \sim O_{sh}]$ ning umumiyligi mutlaqdir. Bu umumiylik nutqda voqelangan so‘z birikmalarida takrorlanuvchi moddiy tomondan ajratib olingan. Chunki $[O_{sh} \sim O_{sh}]$ umumiyligi cheksiz miqdordagi xilma-xil so‘z birikmalarida takrorlanib voqelanadi.

Atash, nomlash qiymatiga ko‘ra antroponimlar sirasiga kiruvchi *Shokir juvokash, temirchi Jo‘ra, general Rahimov, akademik Abdurahmonov, Jabbor rais, Xolmat buva, Mengnor momo, Hakima aya, Sobir tog‘a* kabi so‘z birikmalarining sintaktik qurilishi $[O_{sh} \sim O_{sh}] = [\text{shaxsni tavsiflovchi}]$ SB qolipi mohiyatida mujassam sintaktik qurilishdan keskin farq qilmaydi. Faqat atoqli otlar va shaxs otlarining tobe-hokimligi asosida yuzaga keluvchi so‘z birikmalarining sintaktik qurilishida kishi nomlari (ism/ota ism/familiya) ikki xil birikish usulini belgilaydi:

1. $[O_a \sim O_{sh}] = [\text{shaxsni tavsiflovchi}]$ SB.

2. $[O_{sh} \sim O_a] = [\text{shaxsni tavsiflovchi}]$ SB.

$[O_a \sim O_{sh}]$ birikish usuli $[O_a \sim O_{sh}] = SB^{22}$ qolipini, $[O_{sh} \sim O_a]$ birikish usuli esa $[O_{sh} \sim O_a] = SB$ qolipini keltirib chiqaradi. Qurilish qoliplari atoqli otlarning tobe yoki hokim vaziyatlarda voqelanish imkoniyati asosida birlashsa ham, bir-biridan farq qiladi. Bu so‘z birikmalarining lisoniy sintaktik qurilishini ikki xil qolip umumlashtiradi. Ammo ular umumiy sintaktik qolip emas. Chunki ikkala qolip ham xususiy shakl va xususiy ma’no munosabatidan tashkil topgan bo‘lib, xususiylik maqomida turadi. Ular shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarining umumiy $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ qolipiga tegishli xususiyliklar hisoblanmaydi. Shaxs tavsifini antroponim shakllantiruvchi guruhdagi birikmalar 2 xil – $[O_a \sim O_{sh}] = SB$, $[O_{sh} \sim O_a] = SB$ xususiy qoliplarining nutqiy voqelanishidan yuzaga keladi va ularning

²² $[O_a \sim O_{sh}] = SB$, $[O_{sh} \sim O_a] = SB$, $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ – qoliplarning qisqargan shakli.

mahsuli hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Til sotsial va pragmatik aspektlarining shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarida aks etishi”** deb nomlangan uchinchi bobida sotsiolingvistika, pragmalingvistika, ularning tadqiq obyekti va o‘zaro aloqadorligi masalalari yoritildi hamda shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalari sotsial va pragmatik aspektlarda tahlil qilindi. Bobning 1-bo‘limida sotsiolingvistika va pragmalingvistikaning o‘zaro munosabati masalasi tahlilga tortildi. Shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarida nutqiy, kommunikativ, sotsial, pragmatik xususiyatlarning namoyon bo‘lishi til egasi/lisoniy shaxs/adresant/adresat kommunikativ layoqati, lisoniy qobiliyati, bilimi va imkoniyatlarining nutq faoliyatida yuzaga chiqishi bilan bevosita aloqador. Bu esa, mazkur birikmalarni sotsiopragmatik aspektda tadqiq etishni talab qiladi. Shu sabab sotsiolingvistika va pragmalingvistika fanning mustaqil tarmog‘i sifatida shakllanganligi, ularning tadqiq obyekti va masalalarini aniqlashtirishga e‘tibor qaratildi. Til inson borlig‘i – o‘zligi, tafakkuri, ruhiyati, bilimi, ma‘naviyati, axloqi, ijtimoiy mavqeyi va individual tabiati, jamiyatdagi vazifalarini qamrab olgan hayotini aks ettiradi. Shu bois til inson va uning borlig‘ida yashaydi, “til insonda” bo‘ladi. Inson jamiyat, ijtimoiy davr, muhitga bog‘liqligi, siyosiy-iqtisodiy, moddiy-ma‘naviy munosabatlardagi ishtiroki, rollari, o‘rni uning nutqida namoyon bo‘lishi ma‘lum. Zotan, kishi (so‘zlovchi) biror axborotni aytish, uni ma‘lum qilish vajidan tildan foydalanadi. O‘z lisoniy qobiliyati, layoqati, bilimi, tafakkuridan iborat olami asosida dunyoning lisoniy manzarasini yaratadi, uni o‘zi egallagan til (yoki bir necha til) imkoniyatlari asosida tasvirlaydi. Demak, “inson tilda” bo‘ladi: dunyoning lisoniy manzarasida o‘z lisoniy olami bilan g‘avdalanadi, zero, olam lisoniy manzarasini yaratuvchi ham, bu olamning ajralmas bo‘lagi – zaruriy qismi ham insondir. Tilning ijtimoiy mohiyatini tilga insonning va insonga tilning ta’siri va natijasi belgilaydi. Tilshunoslikda tilni inson/shaxs nuqtayi nazaridan o‘rganish harakatlari o‘tgan asrda boshlangan. N.Xomskiy, U.Cheyf, B.A.Serebrennikov, L.V.Shcherba, Y.N.Stepanov, I.R.Galperin, N.I.Karaulov, N.I.Jinkin, A.A.Leontyev, J.Lakoff, T.A.van Deyk, A.Vejbitskaya, Y.S.Kubryakova, E.Rosh, V.P.Belyanin, V.Z.Demyankov, V.A.Maslova, T.M.Dridze, K.F.Sedov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, E.Begmatov, Sh.Safarov, S.Boymirzayeva, I.Azimovalarning ishlarida til tizimi antropotsentrizm tamoyillari asosida tadqiq etilgan²³. D.Xudayberganova tadqiqotiga asoslanib, o‘zbek tilshunosligida til birliklari XXI asr boshlaridan antropotsentrik paradigma asosida sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvistik pragmatika, psixolingvistika, lingvokulturologiya yo‘nalishlarida tadqiq etilgani haqida umumiy fikrga kelish mumkin. Bu tadqiqotlar dastlab sotsiolingvistik yo‘nalishda olib borildi. O‘zbek tilining davlat tili maqomiga erishuvi, jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida to‘liq joriylanishi, keng qo‘llanishi, ijtimoiy nufuzining oshib borishi, “N.Mahmudovning “Til va jamiyat”, “Til”, “So‘zimiz va o‘zimiz”, “Ma‘rifat manzillari” kabi kitoblarining nashr etilishi o‘zbek sotsiolingvistikasini yangi pog‘onaga ko‘tardi”²⁴. Dastlabki bosqichda “til va jamiyat munosabati masalalariga N.Mahmudov, M.Mirtojiyev ilk bor e‘tibor qaratgan” bo‘lsalar, keyingi bosqichda

²³ Худайберганова Д.Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фанлари доктори... диссер... автореф. – Тошкент, 2015. – 102 б. –Б.7.

²⁴ Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. –Тошкент, 2012. –335 б. –Б.332.

“Sh.Iskandarova, S.Mo‘minov, M.Sulaymonov, Q.Rasulov, M.Qurbonova, L.Raupovalar tadqiqotlarida nutqning sotsiolingvistik jihatlari ochib berilgan”²⁵.

Sotsiolingvistika “jamiyatning barcha jabhalari, jumladan, madaniyat va madaniy me‘yorlar, insonlar xatti-harakati borasida kutilgan natija yoki taxmin, kontekst, tilning qay yo‘sinda qo‘llanilishi hamda jamiyatning tilga ta‘sirini tahliliy o‘rganadi”²⁶. Sotsiolingvistika odamlar til belgisidan qanday – barcha birdaymi yoki har xilmi, yoshi, jinsi, sotsial mavqeyi, ma‘lumot darajasi va xarakteri, umumiy madaniy darajasiga (v.b.) ko‘ra foydalanishlariga urg‘u beradi. Ijtimoiy muhitning tilga va insonlarning nutqiy xulq-atvoriga turli ta‘sirini aynan sotsiolingvistika o‘rganadi²⁷. Tilning ijtimoiy guruhlar nutqida qo‘llanishi, guruhlar va insonlar nutqini millat, mavqe, din, jins, yosh, ma‘lumot darajasi, madaniylik, hudud belgilari asosida farqlashi, shu asosda tabaqalanish xususiyatlarini belgilashi mazkur soha o‘rganadigan asosiy masalalardan biridir.

Tilning sotsial aspektini yoritishda U.Labovning qarashlariga asoslandik. U tilni til jamiyati, ijtimoiy guruh va qatlamlar vakillari nutqida, ijtimoiy vazifalari doirasida tadqiq qilish til to‘g‘risida ishonarli, jonli, hayotiy faktlar asosidagi bilimlarni hosil qilishini tadqiqotlarida aniq metodika va usullar asosida isbotlagan. “Tilni uning sotsial kontekstida tadqiq etish” asarida: “Lingvistika ijtimoiy xulq va nutqni tadqiq qilish istisno etilgan holatda belgilandi. Bunday holat tabiatan o‘z lisoniy bilimlarini tadqiq qilish va individual informantlar yoki ikkinchi qo‘l materiallari bilan ishlashga moyil nazariyotchilarni qoniqtirardi. Lingvistikaga til strukturasini aniqlash sa‘y-harakatlarida ishonchli strategiyani berdi. ... Shunday bo‘lsa-da, sog‘lom idrok buyurgan “lingvistikaning predmeti oxir-oqibat nutq jamoasi aloqa quroli sifatida foydalanuvchi til bo‘lishi lozim” degan xulosadan qochish mushkul”²⁸, deb tushuntirgan. Bizningcha, U.Labovning “sotsiolingvistika – tilni sotsial kontekstda o‘rganuvchi fan” degan ta‘rifida ushbu fan tarmog‘i mohiyati umumlashgan.

Sotsiolingvistikaning pragmalingvistika bilan munosabatini ilmiy paradigmadagi tushuncha va terminlar, tadqiq obyekti va masalalar oydinlashtiradi. Sotsiolingvistikaga oid “kommunikativ vaziyat” tushunchasi tarkibi ko‘zdan kechirilsa, “so‘zlovchi yoki adresant; tinglovchi yoki adresat; so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi munosabat; muloqot tarzi/manerasi (rasmiy – neytral – do‘stona); maqsad; aloqa vositasi (til, dialekt, uslub; harakat, imo-ishora); muloqot usuli (og‘zaki/yozma, kontakt/distant); muloqot o‘rni”²⁹ kabi komponentlar lingvistik pragmatikaga ham tegishliligini payqash mumkin. Zero, bu tushuncha va terminlar lingvopragmatik tahlil va tadqiqotlarda ko‘p va xo‘p qo‘llanadi.

Pragmalingvistika, tadqiq obyekti va masalalarini aniqlashtirishda, ilmiy asoslari, “muloqot”, “muloqot maqsadi”, “kommunikativ niyat”, “nutq subyekti”,

²⁵ Йўлдашева Х. Ўзбек тарихий романларининг социолингвистик тадқиқи: Филол. фанлари... фалсафа доктори (PhD) диссер.автореф. –Тошкент, 2017.– 45 б. –Б.7.

²⁶ Каримова Д. Социолингвистика тушунчасининг назарий ва амалий асослари//Сўз санъати халқаро журнали. 2020.– №5. (–Б.20-24.) –Б.21.

²⁷ Беликов В.И., Крысин Л.П. Социолингвистика.–Москва: Рос.гос.гуманит.ун-т, 2001.– 439 с.–Б.3.

²⁸ Лабов Уильям. Исследования языка в его социальном контексте //В кн. Новое в лингвистике. Выпуск VII. Социолингвистика. –Москва: Прогресс, 1975. –485 с. (С.96-180.) – Б.101. https://www.booksite.ru/fulltext/novoe_1975/text.pdf

²⁹ Belikov V.I., Krisin L.P. Ko‘rsatilgan manba. –Б.41.

“nutqiy akt”, “nutqiy vaziyat”, “kontekst” kabi markaziy tushunchalarini izohlashda Sh.Safarov, M.Hakimov, A.Pardayev, G.Toirova³⁰ tadqiqotlariga asoslanildi. Pragmatik lingvistikaning shakllanishiga Ch.S.Pirs, J.R.Ostin, J.R.Syori, Z.Vendler, P.Grays, L.Linskiy, P.F.Stroson qarashlari, nutqiy akt nazariyasi asosiy mezon vazifasini bajarishi asos bo‘ldi³¹. Uning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash va ushbu qo‘llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari o‘rganiladi³². Asosiy maqsadi nutq faoliyati samaradorligini – nutqning tinglovchiga ruhiy, kommunikativ ta’sirchanligini oshirish³³dir.

Insonning ijtimoiy mavqeyini sotsial omillar ijtimoiy qatlam, milliy-etnik mansublik, madaniy va axloqiy saviya, ma’lumot olganlik darajasi, gender va yosh belgilari, layoqatlar asosida belgilaydi. Jamiyat iyerarxiyasida shaxs o‘z o‘rni va sotsial maqomiga ega. Sotsiolingvistika shaxs ijtimoiy rollariga alohida e’tibor qaratadi, bu rollarning bajarilishi muloqot sharoiti bilan bog‘liq turli nutqiy farqlanishlarga egaligini tasdiqlaydi. Har bir vaziyatda kishi turli pozitsiyani egallashi: teng huquqli hamsuhbat bilan tengligi yoki kommunikatsiya jarayonidagi sherigidan o‘z ustunligi va, aksincha, bo‘ysunishini his qilishi mumkin. Kishilar bir-biri bilan muloqotda har xil rollarni ijro etishadi: ota, er, o‘g‘il (oilada), boshliq, bo‘ysunuvchi (xodim), xizmatdosh (xizmat muhiti), yo‘lovchi va chiptachi (konduktor), xaridor va sotuvchi, shifokor va bemor (mijoz)³⁴. So‘zlovchi/adresant yoki tinglovchi/adresat kasbi “nutq xarakteri va nutq xulqini belgilashi, maxsus til belgilariga ega bo‘lishi” (M.Hakimov, V.I.Belkin, L.P.Krisin)ni nutq voqeligi isbotlaydi. Masalan: “Shu holda jilovxonaga to‘rtinchi kishi kirib keldi. Bunisi jikkak, qirq bilan ellikning orasi, yelkasi turtib chiqq‘an Safar bo‘zchi ismlik edi. Imomga salom berib, so‘fining yonig‘a o‘lturdi va so‘zga biroz quloq solg‘ach, tushunar-tushunmas bahska aralashib qoldi.

– Inshoollo, shu yigit mirzaboshi bo‘lar,-dedi Safar bo‘zchi suhbatning ruhini bilmagan holda, – o‘zi ajab zukko yigit, fuqaroparvar bola: bo‘g‘ani ma‘qul, a, labbay, taqsir? Imom yerga qarag‘an holda boshini qimirlatib qo‘ydi. Samad bo‘qoq xo‘mrayib Safar bo‘zchiga qaradi: – E, akillay berasan-da, Safar, -dedi bo‘qoq, – biz nima deyapbiz-ku, sen nima deyapsan³⁵.

Til egasi muloqot ishtirokchisiga aylanar ekan, qanday ijtimoiy rol yoki vazifa bajarishini nutqiy harakatlari ochib beradi, kommunikativ munosabatda sotsial vazifalarini lisoniy imkoniyatlar va o‘z lisoniy qobiliyatlari orqali namoyon qiladi. Umuman, nutq vaziyati, kommunikanlar ijtimoiy mavqeyi, sotsial rollari, nutqiy harakatlari va xulqi, undagi axloqiy-ma’naviy me’yorga oid xususiyatlar muloqot tizimining asosiy belgilari sanalsa, “ular sotsiopragmatika negizida shakllangan”

³⁰Сафаров Ш. Прагмалингвистика.–Тошкент:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.–286 б.; Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари.–Тошкент: Академнашр, 2013.–176 б.; Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.; Тоирова Г. Ўзбек нуткий мулоқотида системавийлик ва информативлик: Филол. фанлари... фалсафа доктори (PhD) диссер.автореф. –Тошкент, 2017.–49 б.

³¹ Hakimov M. Ko‘rsatilgan manba. –B.6.

³² Safarov Sh. Ko‘rsatilgan manba. –B.76.

³³ Pardayev A. Ko‘rsatilgan manba. –B.130.

³⁴ Belikov V.I., Krisin L.P. Ko‘rsatilgan manba. –B.5.

³⁵ Қодирий, Абдулла. Ўткан кунлар. Мехробдан чаён. Рўмонлар.–Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бишлашмаси, 1992.–528 б. –Б.351-352.

deyish ilmiy haqiqatga mos bo‘ladi. Muloqot yoki diskursda namoyon bo‘luvchi bu belgilar nutqiy harakatlarni sotsiopragmatik omillar ta‘minlashini, demak, nutq faoliyatini belgilovchi asosiy mezonlarning sotsiopragmatik xarakterini ko‘rsatadi.

Uchinchi bobning 2-bo‘limi “Shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarida sotsial va pragmatik xususiyatlar uyg‘unlashuvi” deb nomlanadi. Unda shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalari sotsial va pragmatik aspektlarda tahlil qilindi. Situativ pragmatik sistema sifatida ichki va tashqi omillar butunligidan tashkil topgan nutqiy muloqotning ichki omillari verbal va noverbal vositalardan iborat³⁶. Shu asosga ko‘ra, so‘z birikmasi, uning “shaxsni tavsiflovchi” ma‘noviy turi – $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$, $[O_a \sim O_{sh}] = SB$, $[O_{sh} \sim O_a] = SB$ qoliplari mahsuli ham muloqotni shakllantiruvchi lisoniy, ya‘ni verbal vosita sifatida qo‘llana oladi.

Muloqotda ijtimoiy maqom (mavqe/status) adresant va adresatlar nutqini farqlovchi sotsial omildir. Shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalari shaxs ijtimoiy maqomini farqlaydigan muloqot birliklari sifatida voqelanishini nutqiy muloqotdagi ko‘rinishlari tasdiqlaydi. Quyidagi muloqotda kommunikantlar ijtimoiy statusi hunar asosida belgilanishi, kommunikativ teng huquqlilik hunarmand – hunarmand munosabatida yuzaga chiqqanligini *Usta Alim*, *usta Farfi* birikmalari dalillaydi:

Usta Alim kelguchini xush omadi qilar ekan:

– Siz ham kelar ekansiz-a, *usta Farfi*, -deb piching otib qo‘ydi. Sog‘u salomatlik so‘ralib bo‘ling‘andan so‘ng *usta Farfi* qarshidag‘i yangi qurilgan to‘quv do‘konlariga ishorat qilib dedi: – Ishlar katta-ku, usta. Do‘konlarni ham qurib yuboribsiz³⁷. Kommunikativ vaziyatda hunar/hunarmandlik sotsial belgi sifatida namoyon bo‘ladi va muloqotda simmetriya hosil bo‘lishiga monelik qilmaydi. Dialogik diskursda adresant ham, adresat ham – usta. Usta (hunarmand) lik ijtimoiy qatlam va maqom, rol va vazifani belgilaydi. Bundan muloqot ishtirokchilari umumiy sotsial xususiyatga egaligi ma‘lum bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda til antroponimlardan foydalanish imkoniyatini ijtimoiy mavqeyi, roli, vazifasi teng bo‘lgan shaxslarni ism/familiya/laqab/taxallus bilan nomlash, demak, farqlash uchun taqdim etadi. Adresant/so‘zlovchi shaxsi *usta Alim* birikmasi, adresat/tinglovchi shaxsi *usta Farfi* birikmasi orqali ayon bo‘ladiki, bu hunar va kishi ismini anglatuvchi lug‘aviy birliklarning birikuvi nima sababdan sodir bo‘lgani, qanday maqsad va vazifa uchun voqelashganini izohlaydi. Bu lug‘aviy birliklar alohida-alohida verballashganda kommunikantlar haqida aniq ma‘lumot, tavsif, xarakteristika yetarli darajada shakllanmaydi. Shaxs individualligini sotsial xususiyatlarga ko‘ra belgilaydigan ayni diskursda hunari va ismiga ko‘ra tavsiflanuvchi so‘z birikmasiga ehtiyoj seziladiki, nutqiy vaziyatda bu $[O_{sh} \sim O_a] = SB$ ga oid $[O_{k-h} \sim O_i]$ oraliq shaklli so‘z birikmasi yordamida qondirilgan.

Muloqot turli ijtimoiy maqomdagi yoki sotsial rollari ayri-ayri kishilar orasida yuzaga chiqadi. Masalan, ijtimoiy maqom nuqtayi nazaridan teng bo‘lmagan kommunikativ munosabatning bir ko‘rinishi shoh (hukmdor) va chopar (hukm ijrochisi/mulozim) muloqotida ifodasini topgan:

Bobur joyida o‘tirolmay o‘rnidan turib ketdi.

– Yo alhazar! Toshkent ham ketdimi-a?

³⁶ Toirova G. Ko‘rsatilgan manba.–B.12.

³⁷ Qodiriy, Abdulla. O‘tkan kunlar. –B.179.

– E, so‘ramang, amirzodam! Toshkentda ikki ming *qo‘riqchi askar* bor edi. Olti oyga yetgulik zaxira bor edi! Qo‘rg‘onni qattiq turib himoya qilsa bo‘lur edi³⁸. Adresat ijtimoiy mavqeyi, roli, vazifasiga ko‘ra quyi pog‘onada turishi kommunikativ intensiya reallashgan perlokutiv aktda “amirzodam” murojaat birligidan ayonlashadi. Nutqiy harakatida amalga oshmagan istak so‘nggi jumla (“Qo‘rg‘onni qattiq turib himoya qilsa bo‘lur edi”) mazmunidan anglashilib tursada, xabardagi afsuslanish kayfiyatini “Toshkentda ikki ming *qo‘riqchi askar* bor edi”, “Olti oyga yetgulik zaxira bor edi!” tuzilmalari ochiqalaydi. Shaxsni tavsiflovchi “qo‘riqchi askar” kabi hosilalar muloqotda $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ asosida voqelanadi. U voqelanishi talab qilinadigan pragmatik vaziyatlarda so‘zlovchi/tinglovchi $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ tilning sotsial vazifasini amalga oshirishini ko‘zda tutmagan holda, qolip hosilalarini nutqiy harakatiga mos (chopar “ikki ming *qo‘riqchi askar* bor”ligini perlokutsiyaga aylantirganidek) qo‘llaydi. Demak, nutq egasi beixtiyor tilning aynan shu birliklari – sintaktik qoliplar orqali reallashuvchi lisoniy sintaktik imkoniyatlaridan foydalanadi.

Shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalari kommunikativ munosabatlarda shaxsni ijtimoiy qatlami, unga xoslanish va tabaqalanish belgilari asosida aniqlashtiradi. Nutqiy aktlarda bu vazifa $[O_{sh} \sim O_{sh}]$, $[O_a \sim O_{sh}]$, $[O_{sh} \sim O_a]$ qurilmali birikmalar vositasida amalga oshadi. Quyidagi nutqiy aktda sotsial rol belgilaydigan ijtimoiy xususiyatlarni ifodalovchi *Sulton o‘g‘ri* buning dalili bo‘la oladi.

– Ne ko‘zim bilan ko‘ray, mana, ishonmasangiz, Omon ham guvoh. O‘rtada bizga qo‘shni bo‘lgan Qo‘g‘urmoch mahallalik mashhur *Sulton o‘g‘ri* turar edi³⁹.

Sulton o‘g‘ri birikmasi lisoniy qurilishiga ko‘ra, $[O_i \sim O_{mash}] = SB$ oraliq shakli orqali $[O_a \sim O_{sh}] = SB$ qolipiga bog‘lanadi. Shaxsni ismi va mashg‘uloti asosida nomlaydigan $[O_i \sim O_{mash}]$ oraliq shaklli birikmalar kommunikativ intensiyaga muvofiq, so‘z yuritiluvchi kishilar ijtimoiy qatlami, guruhini belgilash, individualligini ko‘rsatish va ijtimoiy tipini sotsial belgilari asosida farqlashga xizmat qiladi.

Muloqot ishtirokchilarining individualligi milliy mansubiyat, kasb-hunarga egalik kabi sotsial belgilar negizida shakllanishini quyidagi ko‘rinishlari dalillaydi:

– Qancha aqchang bor edi? – deb so‘radi *qozoq mirshab* Sulton kissavurdan.

– Sakkiz so‘m-u miri kam to‘rt tanga. Ola tik hamyonda edi. Ichida “Yo Ali” degan tamg‘alik kumush uzugim ham bor. O‘zim kambag‘al *kosib odamman*, birorta oriq-tirriq qo‘y olib, kuzgacha semirtirib yuraman, deb kelgan edim.

– Guvoh-puvohning hojati yo‘q. Qani, ikkoving oqsoqolning oldiga yur-chi, o‘sha yerda yechamiz. Olomon tarqalsin, – dedi *o‘zbek mirshab*.⁴⁰

Kommunikativ munosabat nutqiy vaziyatda ijtimoiy maqomi teng bo‘lmagan kishilar orasida yuzaga chiqqan. Sotsial maqomni ijtimoiy rollari – *mirshab*, *kissavur*, *kosib* – kasb/hunar/mashg‘uloti belgilagan. Xizmat rollari rasmiy nutq xulqi, nutqiy harakatlarda nutqiy pragmatik va sotsial simmetriya hosil qilolmagani uchun *mirshab*–*kissavur*, *mirshab*–*kosib* munosabatlari asimmetrikdir. Til kommunikativ vaziyatda sotsial omillar ifodasi uchun nominativ birliklar orasida

³⁸ Qodirov P. Yulduzli tunlar. – B. 44.

³⁹ Ғулом, Ғафур. Асарлар. 10 томлик. Т.5. Повестлар, пьесалар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 432 б. – Б.151.

⁴⁰ Ғулом, Ғафур. Асарлар. Т.5. – Б.151.

soʻz birikmasiga ustunlik bersa, shaxs tavsifini muayyanlashtiruvchi (*qozoq mirshab, oʻzbek mirshab, Sulton kissavur, kosib odam* v.b) turi bu vazifani aniqlik bilan bajaradi. Bu soʻz birikmalari kommunikantlarni ijtimoiy xususiyatlari, yaʼni milliy mansubligi (*qozoq/oʻzbek*), xizmat roli – kasbi (*mirshab*), hunari (*kosib*), jinsi (*odam–erkak*) asosida tavsiflaydi. $[O_{sh} \sim O_{sh}]$ qurilmali (*qozoq mirshab, oʻzbek mirshab, kosib odam*) va $[O_a \sim O_{sh}]$ qurilmali (*Sulton kissavur*) birikmalari muloqotda adresant va adresatning rasmiy nutq xulqi, perlokutiv aktda nutqiy harakatlar yuzaga chiqishini taʼminlagan verbal vosita sifatida shaxs sotsial xarakterini ochib beradi.

Bu soʻz birikmalarining pragmatik imkoniyati adresant-adresat munosabatida iz qoldirgan ruhiy holat (norozilik, hurmat, hayrat, ishonchsizlik, iztirob, nafrat v.b.)ni ifodalashda namoyon boʻladi. Tilning pragmatik aspekti sintaktik birliklar, jumladan, $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$, $[O_a \sim O_{sh}] = SB$, $[O_{sh} \sim O_a] = SB$ imkoniyatlarida aks etishini tasdiqlaydi. Nutq subyektiining ruhiyati, shaxsiy munosabati, bahosini ifodalashi bilan pragmatik qimmat kasb etadi.

–Rost, – dedi *Sobirova opa* ichida zil ketib, keyin birdan koʻziga yosh oldi. – Koʻrmaysizmi, Unsinovajon, mana shunday qilib qoʻyishdi meni. Jamiyatdan chiqarib tashlashdi⁴¹. Illokutiv aktda $[O_f \sim O_y]$ oraliq shaklidagi birikma adresat (Unsinova) nutqiy harakatida murojaat birligi sifatida qoʻllangan: – Men ketaman, *Sobirova opajon*. Oʻtiring. Sizga gap bor. Sobirova opa oʻzidan uch yosh kichik dugonasiga umidvor koʻzlarini tikib, koʻrpachaga choʻkdi⁴². Pragmatik vaziyatda subyektiv munosabat *Sobirova opajon* shaklida aks etgan. Murojaat intensiyasi hurmat kategoriyasining rasmiy ifoda usulini tanlagan: bu lisoniy omillar – [-jon] shakli va $[O_a \sim O_{sh}]$ qurilmali soʻz birikmasi yordamida shakllantirilgan.

$[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$, $[O_a \sim O_{sh}] = SB$, $[O_{sh} \sim O_a] = SB$ mahsuli adresant–adresat munosabatidagi ruhiy holatlarni ifodalashi, turli pragmatik vaziyatga xoslanib, badiiy, publitsistik diskursda, monologik, dialogik nutqda, murojaat birligi shaklida shaxs (muallif/personaj/soʻzlovchi/tinglovchi) ijtimoiy xarakterini maʼlumot darajasi, mansab, lavozim, nasab, kasb, hunar, qarindoshlik, yaqinlik, milliy mansublik, yosh, gender kabi sotsial belgilar asosida aniqlashtirishi shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarining sotsiopragmatik xususiyatlari va imkoniyatlar koʻlamini koʻrsatadi. Bu sintaktik qoliplarga oid yigirmaga yaqin oraliq variantlar (*rus xotin, tojik dehqon, qozoq kampir, moshkichiripaz xotin, choyxonachi bola, sirdosh doʻst, bek yigit, usta Miraziz, Qobil qassob, amir Mahmud, etnograf Ostroumov* (v.h.)) shaxs sotsial, pragmatik omillar asosida muayyanlashuvini dalillaydi. Binobarin, bu soʻz birikmalari tilning axborot tashish, ruhiy, axloqiy, estetik taʼsir oʻtkazishida faollashuvchi pragmatik aspekti, til jamiyati va aʼzolari munosabatlari, sotsium va sotsiolektida voqelashuvchi sotsial aspektini namoyon eta oladi.

⁴¹ Холмирзаев Ш. Бодом кишда гуллади. Ҳикоялар. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 320 б. – Б.208

⁴² Xolmirzayev Sh. Koʻrsatilgan manba.–Б.208

XULOSA

1. Til, inson, jamiyat chambarchas bog'langan. Inson til mavjudligi va taraqqiyotining bosh omili, shu bois tilni insondan ajratib, o'rganib bo'lmaydi. Tildan foydalanuvchi ham, til jamiyati yuksalishini namoyon qiluvchi ham insondir. U so'zlovchi, tinglovchi, axborotni qabul qiluvchi va yetkazuvchi, umuman, til egasi.

2. Shaxs falsafiy nuqtayi nazardan "inson tushunchasining yuksak ko'rinishi, oliy maqomi"; ongli faoliyat va munosabatlar subyekti, odam individi; sotsial xususiyatlarning barqaror majmuyidir. "Shaxs" – insonga xos barcha xususiyatlarni qamrab oladigan murakkab, serqatlam tushuncha va ilmiy termin. "Shaxs" fenomenini "individd", "individuallik" ochib beradi. Uning ko'pqirraliligi fanlararo maqomi va turli aspektlarda talqin qilinishini belgilaydi.

3. "Shaxs" tushunchasining ilmiy paradigmalaridan o'rin olishi tadqiq usuli, mezoni, ilmiy yondashuvlar vektorini belgilovchi lingvistik kategoriyaga aylanishiga zamin yaratdi. Shaxs so'zlovchi, so'z yuritayotgan olamning bosh ijrochisi (foili) sifatida tilning markaziy "figurasidir". Millat tili, madaniy mentallik, voqelikni individual idrok etish usuli – o'z "tili"ning egasi sifatida lingvistik – antropologik konsepsiyalarda "lisoniy shaxs" maqomiga ega. Shaxs kategoriyasi so'zlovchi/tinglovchi/til egasi/foydalanuvchi/lisoniy shaxs/ kommunikativ shaxs/adresant/adresat mavqeyida ilmiy mushohadasi va istifodasini kengaytirgan.

4. Nutqda "shaxs" tushunchasini ifodalash ehtiyoji "shaxs" ma'noli til birliklarini faollashtiradi. Shaxsni anglatuvchi leksik, morfologik, sintaktik birliklar zaxirasidan nutqiy ehtiyojga muvofiqlari tanlanadi. Tilda shaxsni anglatuvchi birliklar turli sathlar va lisoniy tabiatiga mos paradigmalarda "yashaydi" va shaxsni nomlash, tavsiflash imkoniyatlari, usullari shu vazifaga xoslangan birliklar orqali namoyon bo'ladi. O'zbek tilida "shaxs" ma'noli leksik birliklar "shaxs tavsifi" lug'aviy mavzuviy to'dasiga kiradi va oldindan tayyor bo'ladi.

5. O'zbek tilida shaxsni tobe va hokim a'zosi shaxs otlari hamda atoqli ot (antroponim)lardan tuzilgan so'z birikmalari orqali tavsiflash, nomlash imkoniyati mavjud. Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$, $[O_a \sim O_{sh}] = SB$, $[O_{sh} \sim O_a] = SB$ qoliplari asosida yuzaga keladi va so'z birikmasining ma'noviy tipi sifatida ajratiladi. Ikkala a'zosi shaxs otlaridan iborat turining lisoniy sintaktik qurilishi $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ mohiyatida mujassamlashgan. Bu qolip $[O_k \sim O_y] = SB$, $[O_{yaq} \sim O_j] = SB$, $[O_j \sim O_k] = SB$, $[O_m \sim O_j] = SB$ kabi o'nlab oraliq qoliplarni umumlashtiradi. Antroponimli turini ikki xil birikish usulida hosil qiluvchi $[O_a \sim O_{sh}] = SB$, $[O_{sh} \sim O_a] = SB$ xususiy qolip sanaladi. Mazkur qoliplar umumiylik-xususiylik dialektikasi asosida shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari paradigmasini belgilaydi.

6. Shaxsni tavsiflash vazifasini shaxsni atovchi lug'aviy birliklar kabi baravar bajara oladigan so'z birikmalari lisoniy sintaktik xususiyatlariga ko'ra "shaxs" semali leksemalar bilan ziddiyatda turadi. Leksik sathda "shaxs" semali leksemalar paradigmasi bo'lganidek, sintaktik sathda shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari paradigmasi mavjud. Bu paradigma, uning a'zolari va yetakchini aniqlash o'zbek substansial tilshunosligida yechimini kutayotgan muammolardan biridir.

7. Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$, $[O_a \sim O_{sh}] = SB$,

$[O_{sh} \sim O_a] = SB$ sintaktik qoliplari asosida nutqiy muloqot yoki diskursda voqelashadi. Tilning nominativ vazifasini lisoniy sintaktik imkoniyatlar asosida nutq/muloqot/diskursda namoyon etuvchi verbal vosita sanaladi. Kommunikativ intensiyaning ifodasi nutq yaratuvchining lisoniy mahorati, “vaziyat grammatikasi”ni bilishi, undan to‘g‘ri, o‘rinli, unumli foydalana olishiga bog‘liq. Zero, samarali muloqot til egasidagi bilim va malaka mujassam kommunikativ layoqatning nutqiy zuhurotidir.

8. Tilning amaliy faoliyati inson, sotsial va pragmatik omillarga bog‘liqligi bois shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalari lingvistik sotsial va pragmatik aspektlarni namoyon eta oladi. Til kommunikativ vaziyatda sotsial va pragmatik omillar ifodasi uchun bu so‘z birikmalariga ustunlik beradi. Zero, shaxsning sotsial rollari, qatlamiga xos belgilar, muloqot xulqini illokutiv va perlokutiv aktlarda verballashtiradi. Ijtimoiy maqom adresant va adresat nutqini farqlovchi sotsial omildir. Umumiy sotsial xususiyat sifatida namoyon bo‘lganda nutqiy simmetriya hosil qilishi va rasmiy nutq xulqi, nutqiy harakatlar keskin farqlanganda asimmetriya hosil qilishini $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$, $[O_a \sim O_{sh}] = SB$, $[O_{sh} \sim O_a] = SB$ qurilmali birikmalar aks ettiradi. Demak, pragmatik va sotsial omillarning nutqiy simmetrik va asimmetrik ifodasini shakllantiradi.

9. Antroponimli – $[O_a \sim O_{sh}]$, $[O_{sh} \sim O_a]$ qurilmalar adresant/adresatni nomlash, shaxsini aniqlash, ism egasining individual tabiatni ochib berish uchun verballashadi. Ism/familiya/laqab, kasb, hunar, mashg‘ulot, lavozim, nasab, yosh, jins, millat/qavmga ko‘ra nomlaydigan $[O_i \sim O_h]$, $[O_i \sim O_{mash}]$, $[O_{k-h} \sim O_i]$, $[O_{n/m} \sim O_i]$, $[O_i \sim O_q]$, $[O_i \sim O_m]$, $[O_i \sim O_l]$, $[O_f \sim O_y]$, $[O_k \sim O_f]$ oraliq shaklli birikmalar nutq subyektlarining ijtimoiy qatlami, guruhi, individualligi, tipini sotsial belgilar asosida farqlaydi. Ism referentiga nisbatan ijobiy, salbiy, neytral munosabatni bildirish uchun qo‘llanganda pragmatik aspekt kuchayadi. Shaxs tavsifida faol qo‘llanib, sotsiopragsmatik omillarni yorqin ifodalaydi.

10. $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$, $[O_a \sim O_{sh}] = SB$, $[O_{sh} \sim O_a] = SB$ mahsuli adresant–adresat munosabatida iz qoldirgan ruhiy holat (norozilik, hayrat, nafrat v.b.)ni ifodalashi, pragmatik vaziyatga xoslanib, badiiy, publitsistik diskurslar, monologik, dialogik nutqda, murojaat birligi shaklida voqelanishi, muallif/personaj/so‘zlovchini ma’lumot darajasi, mansab, lavozim, nasab, kasb, hunar, qarindoshlik, milliy mansublik, yosh, gender kabi sotsial belgilar asosida xarakterlashida pragmatik imkoniyatlar ko‘lamini namoyon etadi. Bu qoliplarga oid 20ga yaqin oraliq variantlar shaxs sotsial, pragmatik omillar asosida muayyanlashuvini dalillaydi. Shaxsni sotsial kontekstda tavsiflash imkoniyatlari $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$, $[O_a \sim O_{sh}] = SB$, $[O_{sh} \sim O_a] = SB$ qurilmali so‘z birikmalarining sotsiopragsmatik va lingvistik qimmatini belgilaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХОЖИЕВА МАХФИРАТ ЮСУПОВНА

**ОПИСАНИЕ ЛИЧНОСТИ В СЛОВСОЧЕТАНИЯХ
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА
(В СУБСТАНЦИОНАЛЬНОМ И СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКОМ
АСПЕКТАХ)**

10.00.01 – Узбекский язык

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискании учёной степени доктора философии (PhD) по
филологическим наукам

Бухара– 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD)
№B2021.1.PhD/Fil1094 в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров
Республики Узбекистан

зарегистрирована

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме))
размещен на веб-странице Бухарского государственного университета (www.buxdu.uz) («Ziynet»
(www.Ziynet.uz))

Научный руководитель:

Назарова Саида Ахмеджановна

кандидат филологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Бахриддинова Башорат Мадиевна

доктор филологических наук, профессор

Раунова Лайло Рахимовна

доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация:


Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «25» «марта» 2023 года в 11⁰⁰ часов на
заседании Научного совета DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 Бухарском государственном
университете (адрес: 200118, город Бухара, улица М. Икбол, дом № 11. Тел.: (0 365) 221-29-
14; факс: (0 365) 221-29-14, email: buxdu_rektor@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского
государственного университета (зарегистрирована за №1353 Адрес: 200118, город Бухара, улица
М. Икбол, дом № 11. Тел.: (0 365) 221-29-14.

Автореферат диссертации разослан «11» «марта» 2023 года
(Протокол-реестр рассылки № С от «11» «марта» 2023 года)


Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней (DSc),
доктор филологических наук,
профессор

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней доктор
философии по филологическим
наукам (PhD), доцент

Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
филологических наук (DSc),
профессор


ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике при изучении языка в рамках антропоцентрической парадигмы главным фактором является человек. Человек – в статусе владельца языка, носителя языка, личности в языке, говорящего, слушателя, адресата, имеет приоритет в развивающихся отраслях антропологической науки в таких, как социалингвистика, прагмалингвистика, психолингвистика, когнитивная лингвистика, этнолингвистика, лингвоперсонология, лингвокультурология, нейролингвистика, эколингвистика. Будучи продуктом человеческой социализации, индивид усилил научное изучение категории “языковая личность” в языке. Уже при социалингвистическом, прагмалингвистическом, лингвокультурологическом, лингвоперсонологическом изучении личности в языке открываются новые грани личности в языке. Лингвистические, речевые, коммуникативные, прагматические, социальные, культурологические, методологические аспекты категории личности ярко и всесторонне выражены при изучении лингвистических концептов в словосочетании. Категория личности отражается в единицах лексического, морфологического, синтаксического уровня. Сочетание лингвистических, синтаксических, номинативных, ономастических, социальных, прагматических аспектов в выражении личности в словосочетаниях диктует необходимость исследований на пересечении субстантивных, социалингвистических и прагмалингвистических теорий.

В результате системного, структурного, семантического, дискурсивного, деривационного изучения антропоцентрической, лингвистической системы лингвистической категории “человек” в мировой лингвистике были сформированы теоретические основы, методы и методология анализа. Переход науки о языке от теоретической стадии к практической является социальной необходимостью, определяемой глобальным развитием и общечеловеческими потребностями. Оценка активации языка в общении, речевых ситуациях, речевых действиях в социальном контексте подкрепила социалингвистические и прагмалингвистические исследования, в которых лидировал личностный фактор. Следовательно, выражение описания личности в лексике требует исследования с интеграцией предметных, социалингвистических, прагмалингвистических научных основ и методов.

В центре фундаментальных реформ во внешней и внутренней, языковой политике нашей страны, национальной культуре, образовании, юриспруденции, экономике, медицине находятся интересы человека и его окружения. В конце концов, внедрение идеи “сначала – человек, затем – общество и государство”⁴³ доказывает это. Между тем, и в отечественной лингвистике направление антропоцентрических исследований является

⁴³ <https://president.uz/uz/lists/view/5774> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 2022 йил 20 декабрь.

центральным понятием, которое установило методы, принципы научных исследований при изучении лингвистических и речевых возможностей языковых единиц. В последние годы лингвопрагматическое, социолингвистическое, этносоциопрагматическое, прагматилистическое, лингвистическое, гендернолингвистическое изучение узбекского языка является ведущим в лингвистической интерпретации личности. Хотя лингвистическая сущность, возможности языковых единиц определяются при предметном изучении узбекского языка, речевые реалии не могут быть изучены без прагматических и социальных факторов. Следовательно, существует необходимость исследовать возможности характеристики человека на узбекском языке в содержательном, социальном, прагматическом аспектах. Раскрытие лингвосинтаксического, социопрагматического значения словосочетаний, характеризующих личность, актуально с точки зрения развития исследований узбекского языка на новом этапе, где объединены содержательный, социолингвистический, лингвопрагматический аспекты.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-6084 от 20 октября 2020 года "О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране", Указе Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», в Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-2789 от 17 февраля 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности», Постановлении № 984 Кабинета Министров Республики Узбекистан от 12 декабря 2019 года «Об утверждении положения о Департаменте развития государственного языка», а также других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Степень изученности проблемы. В мировой лингвистике в исследованиях В.В.Бурлаковой, Л.С.Бархударова, А.А.Джигоевой, В.Г.Гак, С.Г.Тер-Минасовой, Е.В.Юрьевой, И.А.Читао, С.Е.Рагимхановой, Н.В.Яценко, Г.И.Бабаевой, К.Я.Сигал, М.В.Влаваской, Ф.У.Хайдаровой, М.Т.Рамазанова, Г.Х.Зиннатулиной, И.Б.Клиенковой, С.Б.Какваевой, Т.А.Белюсовой, Н.В.Фисуновой⁴⁴ изучались романо-германский,

⁴⁴ Бурлакова В.В. Основы структуры словосочетания в современном английском языке. – Ленинград: изд-во ЛГУ, 1975.; Бархударов Л.С. Грамматика английского языка / Л.С.Бархударов, Д.А.Штелинг.– Либроком, 2009.–160 с.; Джигоева А.А. Английская номинативность и картина мира. – Москва: ИНФРА-М, 2017. –173 с. https://istina.msu.ru/download/70772608/1dkinJ:ZWMcHxiT6RKCR_8sIxIw949hHSUE/ ; Гак В.Г. К вопросу о семантической типологии словосочетаний // Сб. науч. тр. МГПИИЯ им. М.Тореза.– Москва, 1979. Вып. 145. – С. 44-52.; Тер-Минасова С.Г., Аветисян Н.Г. О соотношении номинативных и предикативных

славянский, татарского, азербайджанский, таджикский, чувашский, адыгейский, лакский языки, их структурные, семантические, типологические, номинативные, методологические дифференциальные свойства словосочетания, лексико-морфологически атрибутивный, именованный, субстантивный, генетический, в соответствии со структурой, классифицируются простые и сложные типы. Формально-описательное, структурное, структурно-семантическое, сравнительно-типологическое, когнитивное изучение лексики в мировой лингвистике сформировало теоретические основы синтаксиса словосочетаний. В этих исследованиях отмечается, что описание человека отражается в именных, субстантивных, атрибутивных словосочетаниях, но словосочетания, характеризующие человека, не были предметом отдельного исследования.

При содержательном изучении лексики в узбекской лингвистике был применен термин "словосочетание, описывающее человека", исследование С.Назаровой⁴⁵, были высказаны некоторые мнения об отношении лексических типов словосочетаний и их лингвистической конструкции.

